

**“TIQXMMI” MTU HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY  
TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**KARIMBAYEV ELDOR XALMURATOVICH**

**LEGIRLANGAN YUQORI HARORATLI O‘TAO‘TKAZUVCHAN  
KUPRATLARNING NORMAL VA O‘TAO‘TKAZUVCHAN  
HOLATLARIDAGI G‘AYRIODDIY TERMODINAMIK  
XUSUSIYATLARINING MIQDORIY NAZARIYASI**

**01.04.02 – Nazariy fizika**

**fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fizika-matematika fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc)  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата  
диссертации доктора (DSc) по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract  
of the doctor (DSc) on physical and mathematical sciences**

**Karimbayev Eldor Xalmuratovich**

Legirlangan yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan kupratlarning normal va o'tao'tkazuvchan holatlaridagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlarining miqdoriy nazariyasi..... 3

**Каримбаев Элдор Халмуратович**

Количественная теория аномальных термодинамических свойств легированных высокотемпературных купратных сверхпроводников в их нормальном и сверхпроводящих состояниях..... 33p

**Karimbaev Eldor Xalmuratovich**

Quantitative theory of anomalous thermodynamic properties of doped high-temperature cuprate superconductors in their normal and superconducting states..... 63

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 68

**“TIQXMMI” MTU HUZURIDAGI FUNDAMENTAL VA AMALIY  
TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**KARIMBAYEV ELDOR XALMURATOVICH**

**LEGIRLANGAN YUQORI HARORATLI O‘TAO‘TKAZUVCHAN  
KUPRATLARNING NORMAL VA O‘TAO‘TKAZUVCHAN  
HOLATLARIDAGI G‘AYRIODDIY TERMODINAMIK  
XUSUSIYATLARINING MIQDORIY NAZARIYASI**

**01.04.02 – Nazariy fizika**

**fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/FM279 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida va O‘zR FA Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash vebsahifasi (www.inp.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djumanov Safarali,**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulov Rustam Yavkachevich**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Gulyamov Gafur**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Sapayev Usman Kalandarovich**

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Al-Farobiy nomidagi**

**Qozoqiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Qori Niyoziy 39, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti. Tel. (+99871) 237-09-61; faks (+99871) 237-09-62; e-mail: info@ifar.uz).

Dissertatsiya bilan Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Qori Niyoziy 39, FATI. Tel. (+99871) 237-09-61).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.J. Axmedov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi f.-m.f.d., professor, akademik

**J.R. Rayimbayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy

kengash ilmiy kotibi

f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

**B.M. Narzulloev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda kritik o'tish harorati  $T_c$  dan yuqori bo'lgan psevdotirqish holatining tabiati va kelib chiqishini, shuningdek, legirlangan mis oksidli (kupratli) birikmalarda o'tao'tkazuvchanlik holatini tadqiq qilish zamonaviy kondensirlangan holatlar fizikasining muhim yo'nalishlaridan biridir. 1986-yilda kashf etilgan kupratli yuqori haroratli o'tao'tkazuvchanlikning (YHO'O') normal va o'tao'tkazuvchan holatlardagi fizikasini o'rganishga katta qiziqishning paydo bo'lishi, eng avvalo, yuqori kritik o'tish haroratiga (xona harorati) ega istiqbolli YHO'O'-materiallarini yaratish imkoniyati bilan bog'liq. Bu esa samarali va muqobil energiya manbalarini yaratish imkoniyatini beradi hamda fan, texnika va energetika sohalari uchun keng istiqbollarni ochadi. Shu sababli, butun dunyo bo'ylab, shu jumladan O'zbekistonda ham yangi normal va o'tao'tkazuvchan xususiyatlarga ega YHO'O'-kupratlarni nazariy va eksperimental o'rganishlar olib borilmoqda. Legirlangan YHO'O'-kupratlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar qariyb qirq yildan beri davom etayotganiga qaramay, kam, optimal va yuqori legirlangan YHO'O'-materiallarda noodatiy YHO'O' mexanizmini tushuntirishda yetarli aniqlik hali mavjud emas.

Ushbu YHO'O'-sistemalarning fizikasi tushunishda asosiy qiyinchiliklar ularning juda g'ayrioddiy xususiyatlari, ya'ni normal (psevdotirqish) va o'tao'tkazuvchan holatlari bilan bog'liq bo'lib, ushbu xususiyatlarning kelib chiqishini to'liq tushunmasdan, yuqori haroratli o'tao'tkazuvchanlikning mikroskopik mexanizmlarini aniqlash mumkin emas. Kam va optimal legirlangan, ba'zan yuqori legirlangan YHO'O'-kupratlarda  $T_c$  dan yuqori haroratlarda yuqori bo'lgan qo'zg'alish spektridagi psevdotirqishlar hamda  $T_c$  dan past haroratlarda g'ayrioddiy o'tao'tkazuvchan holat bilan bog'liq elektron xususiyatlarning ko'plab anomaliyalari kuzatiladi. Shu bilan birga, YHO'O'-kupratlarning psevdotirqish va yangi o'tao'tkazuvchan holatlarining tabiati va xususiyatlarini tushunish ularning g'ayrioddiy YHO'O' tushuntiruvchi har qanday yondashuvning asosiy muammosi hisoblanadi. YHO'O'-kupratlarda yuqori  $T_c$  dan yuqori haroratda psevdotirqish holati va g'ayrioddiy o'tao'tkazuvchanlik holatini tasvirlash uchun ko'plab nazariy yondashuvlar mavjud. Ko'plab nazariy modellarda kuchli elektron korrelyatsiya g'oyalari (faqat legirlanmagan kupratlarda mavjud bo'lgan va kengaytirilgan Xabbard modeli orqali tasvirlanadigan), Bardeen-Kuper-Shriffer (BKS) modelining turli modifikatsiyalari va polyor kupratli materiallaridagi kuchli elektron-fonon o'zaro ta'sirini hisobga olmagan holda ideal bipolaronlardan va boshqa Boze turidagi kvazizarralardan tashkil topgan Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi (BEK) modeli asosida yondashiladi. Ammo bunday nazariy modellar psevdotirqish va o'tao'tkazuvchan holatlarni tasvirlashda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuning uchun,  $T_c$  dan yuqori haroratlarda psevdotirqish va  $T_c$  dan past haroratlarda g'ayrioddiy o'tao'tkazuvchan holatlarning shakllanishini aniq tasvirlay oladigan, miqdoriy nazariyani ishlab chiqish juda muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

O'zbekistonda nazariy fizika va kondensirlangan holatlar fizikasi, xususan, YHO'O'-materiallar va nanostrukturali materiallar fizikasi, shuningdek,

yarimo'tkazgichlar fizikasi va dunyo miqyosidagi fundamental tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz fanining rivojlanishi va uning keyingi amaliy qo'llanilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ushbu fundamental tadqiqotlar yo'nalishlari "O'zbekiston – 2030" strategiyasida aks ettirilgan.<sup>1</sup>

Mazkur dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqot ishlari ham ma'lum darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi "Yangi texnologiyalarni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarga mos keladi. O'zbekiston 2022–2026 yillarga mo'ljallangan. 2017-yil 13-fevraldagi PQ-2772-son "2017-2021-yillarda elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida", 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish", shuningdek ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning II. "Energiya, energiya tejash va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarildi.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**

Legirlangan YHO'O'-kupratlarning g'ayriodatiy termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarini eksperimental va nazariy tadqiq qilish dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi ilmiy markazlar, institutlar va universitetlarda olib borilmoqda. Jumladan, Angliyadagi Kembrij universiteti qoshidagi o'tao'tkazuvchanlik bo'yicha fanlararo ilmiy-tadqiqot markazi, AQShdagi Argon milliy laboratoriyasi, Norvegiya texnologiya instituti, Angliyadagi Birmingem universiteti, Shveysariyadagi Jeneva universiteti, AQShdagi Illinoys universiteti, Xitoydagi Yunnan universiteti, Germaniyadagi Kyoln universiteti, Yaponiyadagi Xokkaydo universiteti, Rossiyadagi A.D. Landau nomidagi nazariy fizika instituti, P.N. Lebedev nomidagi fizika instituti va AQShdagi Kaliforniya universiteti shular jumlasidandir.

Legirlangan YHO'O'-kupratlarining g'ayriodatiy termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarini o'rganishda dunyoda quyidagi ilmiy natijalar olingan: YHO'O'-kupratlarining normal holatidagi elektron issiqlik sig'imi koeffitsiyenti aniqlangan va uning ma'lum bir  $T_c$  dan yuqori haroratda g'ayriodatiy o'zgarishi kuzatilgan (AQSh Argon milliy laboratoriyasi, Angliyadagi Kembrij universiteti, Yaponiyadagi Xokkaydo universiteti); YHO'O'-kupratlarining o'tao'tkazuvchanlik o'tishidagi kritik haroratda elektron issiqlik sig'imida  $\lambda$ -simon anomaliya (sakrash) eksperimental tarzda aniqlangan (AQSh Argon milliy laboratoriyasi, Norvegiya Texnologiya instituti, Angliyadagi Birmingem universiteti, Yaponiyadagi Xokkaydo universiteti); ayrim YHO'O'-kupratlarida elektron issiqlik sig'imida ikki cho'qqili anomaliya qayd etilgan (AQSh Kaliforniya universiteti); YHO'O'-kupratlarining

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston – 2030» Strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy nashri. – Toshkent: Adolat, 2023.

o'tao'tkazuvchanlik fluktuatsiyalari modeli asosida haroratga bog'liq elektron issiqlik sig'imi koeffitsiyenti hisoblangan (AQSh Argon milliy laboratoriyasi).

Hozirgi vaqtda YHO'O'-kupratlarining g'ayrioddiy termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarini o'rganish, jumladan: elektron issiqlik sig'imining sakrash anomaliyasi va YHO'O'-kupratlarining normal holatidagi psevdotirqish xatti o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash; YHO'O'-kupratlarida o'tao'tkazuvchanlik o'tishidagi  $\lambda$ -simon anomaliya sabablarini izohlash;  $T_c$  dan past haroratdagi entropiyasining anomaliyaviy o'zgarishini o'rganish; YHO'O'-kupratlarining yuqori kritik magnit maydonining haroratga bog'liq kink-simon anomaliyasining tabiati va kelib chiqishini aniqlash ishlari davom etmoqda.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Hozirgi kunda dunyoning yetakchi olimlari tomonidan legirlangan YHO'O'-kupratlarining elektron tuzilishi, termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlari eksperimental va nazariy jihatdan o'rganilgan. Xususan, amerikalik (P.V. Anderson, J.R. Shriver, D. Payns, J.-H. Shen, P.A. Li, Ch.M. Varma, D. Emin, M.B. Salamon, D.M. Ginzberg, D.B. Tanner, B.D. Dunlap, B. Yanko, J.R. Kirtli va boshqalar), ingliz (D.J. Lore, J.R. Kuper, P.J. Leggett, K.N.N. Darlington, K.A. Gufi va boshqalar), fransuz (J. Ranninger, B.K. Chakravarti, H. Alloul va boshqalar), gollandiyalik (Ya. Zaanen, D. Van der Marel va boshqalar), shveysariyalik (O. Fisher, Ch. Renner, A. Junod va boshqalar), kanadalik (T. Timusk, B. Statt, V.N. Hardy, D.A. Bonn va boshqalar), xitoylik (Yu. Lu, F.-S. Liu, G.M. Jao va boshqalar), yaponiyalik (S. Uchida, M. Oda, N. Momono, Yu. Koike, Yu. Endo, M. Sato, A. Matsuda, T. Kato va boshqalar), hindistonlik (K.N.N. Rao, G. Baskaran va boshqalar), rossiyalik (A.A. Abrikosov, A.I. Larkin, V.V. Tolmochev, A.S. Aleksandrov, S.I. Vedenev va boshqalar) va o'zbek olimlari (S. Jumanov, B. Ya. Yavidov, P.J. Baymatov, B. Abdullayev) tomonidan YHO'O'-kupratlarning normal va o'tao'tkazuvchan xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar katta qiziqish uyg'otadi.

Ushbu tadqiqotlar natijasida YHO'O'-kupratlarning normal va o'tao'tkazuvchan holatlaridagi ayrim g'ayrioddiy xususiyatlarini tushunishga erishildi. Shuningdek, yetakchi olimlar tomonidan legirlangan va optimal legirlangan YHO'O'-kupratlarida kuzatiladigan psevdotirqish xususiyatlarini izohlash uchun turli nazariy modellar taklif etilgan (Anderson, Jumanov, Emery, Kivelson, Varma, Payns, Castellani va boshqalar) va ulardagi o'tao'tkazuvchan fazaviy o'tishlarning o'ziga xos xususiyatlari ham ko'rsatib berilgan (Emery, Kivelson, Ranninger, Larkin, Li, Jumanov, Tolmochev va boshqalar). Ko'plab eksperimental tadqiqotlar (Sugai, Bi, Kresin, Kastner, Lonza va boshqalar) YHO'O'-materiallarida nooddiy elektron-fonon o'zaro ta'sirlari va ular bilan bog'liq polaron effektlarini ko'rsatdi, bu esa YHO'O'-kupratlarning g'ayrioddiy elektron xususiyatlariga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Eksperimental va nazariy ishlar (Batlogg, Lore, Tallon, Kampuzano, Oda, Timusk, Shen, Jumanov, Payns, Sadovskiy, Li va boshqalar) YHO'O'-kupratlarning normal holatida kuzatilgan turli g'ayrioddiyliklarning kelib chiqishini o'rganadi, bu g'ayrioddiyliklar eksitatsiya spektrida  $T_c$  dan yuqori bo'lgan ma'lum xarakteristik harorat  $T^*$  da psevdotirqish hosil bo'lishi bilan bog'liqdir. YHO'O'-kupratlarning

g'ayrioddiy o'tao'tkazuvchan xususiyatlari turli eksperimental metodlar va nazariy yondashuvlar yordamida o'rganilmoqda, biroq legirlangan va optimal legirlangan YHO'O'-kupratlarning yangi o'tao'tkazuvchan xususiyatlarini o'rganishda bu usullar ko'pincha cheklangan bo'lib chiqmoqda. Fotoemisison (jumladan, burchakli fotoemisison) spektroskopiyasi, tunnel spektroskopiya, Raman sochilishi va infraqizil yutilish kabi turli eksperimental usullar bir zarrachali eksitatsiyalar va Fermi sathidagi BKS-simon energiya tirqishlari haqida qimmatli ma'lumotlar bera oladi, lekin ular YHO'O'-kupratlarning haqiqiy o'tao'tkazuvchan parametrlarini aniqlash uchun yetarli emas, chunki ular BKS tipidagi o'tao'tkazuvchan xususiyatlarga ega emas. Shu nuqtai nazardan, termodinamik va boshqa shunga o'xshash metodlar YHO'O'-kupratlarning o'tao'tkazuvchan parametrlarini aniqlashda qo'llanilishi mumkin. Ko'plab nazariyalar BKS-simon Fermi suyuqlik o'tao'tkazuvchanligi modellariga asoslangan bo'lsa-da, ular YHO'O'-kupratlarning yangi o'tao'tkazuvchan xususiyatlarini, xususan,  $\lambda$ -simon o'tao'tkazuvchan fazaviy o'tishni  $T_c$  da to'liq tasvirlay olmaydi.

S. Djumanov va P.J. Baymatovning ishlari YHO'O'-kupratlarda Boze-tipli suyuqlik modeli doirasida o'tao'tkazuvchanlik imkoniyatlarini ko'rib chiqdi, lekin ushbu tadqiqotlarda YHO'O'-kupratlarning termodinamik va boshqa bog'liq g'ayrioddiy xususiyatlari uchun aniq nazariy asos ishlab chiqilmagan. Hozirgi vaqtga kelib bu nazariya YHO'O'-kupratlarda o'tao'tkazuvchanlikni model asosida tasvirlashdan yuqori aniqlik darajasiga ega tizimlarning aniq tavsifiga o'tmoqda.

Legirlangan va optimal legirlangan YHO'O'-kupratlarning g'ayrioddiy normal va o'tao'tkazuvchan xususiyatlarini tushunishda muayyan yutuqlarga erishilganiga qaramasdan, ushbu materiallarning normal va o'tao'tkazuvchan holatlaridagi turli g'ayrioddiyliklarning kelib chiqish tabiati hali to'liq tushunilmagan va  $T_c$  va undan past haroratlarda o'tao'tkazuvchan fazaviy o'tishlar bilan bog'liq asosiy muammolar yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu hal etilmagan masalalar va YHO'O'-kupratlarning termodinamik va boshqa bog'liq g'ayrioddiy xususiyatlari uchun aniq nazariyaning yo'qligi ushbu dissertatsiya doirasida olib borilgan nazariy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida, FA-F2-F070 "YBa<sub>2</sub>Cu<sub>3</sub>O<sub>7- $\delta$</sub>  yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan kupratlarning g'ayrioddiy transport, issiqlik va elastiklik xususiyatlarini o'tao'tkazuvchanlikka o'tish haroratidan yuqori haroratlarda o'rganish" (2007–2011); F.2–12 "Kupratlarning elektron tuzilishidagi psevdotirqishlar hosil bo'lishi mexanizmi va ularning kuprat-metall kontaktlarining tunnel xususiyatlarida o'tao'tkazuvchanlikka o'tish haroratidan yuqori haroratlarda ko'rinishlari" (2012–2013); F2-FA-F120 "Yuqori haroratli o'tao'tkazgichlar, yarimo'tkazgichli geterotuzilmalar, metallar va ularning oksidlarining elektron xususiyatlari va radiatsion modifikatsiyasi" (2012–2016); OT-F2-15 "Yuqori haroratli o'tao'tkazgichlar va ularga tegishli kondensatsiyalangan tizimlarning yangi o'tao'tkazuvchanlik va o'taoquvchanlik xususiyatlarini nazariy o'rganish" (2017–2021); va FA-2021-433 "Yuqori haroratli

o'tao'tkazuvchan kupratlarining donalar chegaralarida, fazalararo chegaralarda va qatlamli sohalarda xona haroratida o'tao'tkazuvchanlik imkoniyatlarini nazariy va eksperimental o'rganish" (01.10.2021–30.09.2023) ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kam va optimal legirlangan YHO'O'-kupratlarining normal va o'tao'tkazuvchan holatlaridagi g'ayrioddiy termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarining miqdoriy nazariyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

legirlangan YHO'O'-kupratlarda bipolaronlar va kichik (polaron) Kuper juftlari uchun Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi (BEK) haroratiga tashqi bosim (kuchlanish) va bozolararo o'zarota'sirning ta'sirini o'rganish;

YHO'O'-kupratlarning normal holatidagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlarini adekvat tasvirlaydigan miqdoriy nazariyani rivojlantirish;

YHO'O'-kupratlarning normal holatidagi termodinamik parametrlarni (elektron issiqlik sig'imi va entropiya) hisoblash;

YHO'O'-kupratlarning normal holatidagi elektron issiqlik sig'imi va entropiyasining g'ayrioddiy xususiyatlari tabiatini va kelib chiqishini aniqlash;

YHO'O'-kupratlarning normal holatidagi termodinamik parametrlarning haroratga bog'liqliklarini mavjud eksperimental natijalar bilan taqqoslash;

YHO'O'-kupratlarning o'tao'tkazuvchan holatidagi termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarini adekvat tasvirlaydigan miqdoriy nazariyani rivojlantirish;

legirlangan YHO'O'-kupratlardagi o'tao'tkazuvchan kichik Kuper juftlarining past haroratlarda ( $T \ll T_c$ ) va  $T_c$  ga yaqin haroratlardagi issiqlik sig'imi va entropiyasi uchun analitik ifodalarni olish;

haroratga bog'liq holda YHO'O'-kupratlarning o'tao'tkazuvchan holatidagi termodinamik parametrlarni hisoblash va  $T_c$  dan past haroratlarda ushbu materiallarning termodinamik xususiyatlaridagi g'ayrioddiy xatti-harakatlarni, ayniqsa,  $T_c$  yaqinida turli YHO'O'-materiallarining  $\lambda$ -simon issiqlik sig'imi anomalialariga urg'u berib, tahlil qilish;

YHO'O'-kupratlarning yuqori kritik magnit maydonining haroratga bog'liqligini  $H_{c2}(T)$  va yangi o'tao'tkazuvchan parametr tartibini  $\Delta_{SC}(T)$  hisoblash;

YHO'O'-kupratlarda  $T_c$  dan past bo'lgan ba'zi bir xarakteristik haroratda  $H_{c2}(T)$  va  $\Delta_{SC}(T)$  da kink-simon xususiyatlar mavjudligini isbotlash hamda  $T_c$  yaqinida YHO'O'-kupratlarda eksperimental kuzatiladigan  $H_{c2}(T)$  va  $\Delta_{SC}(T)$  dagi kink-simon xususiyatlarni izohlash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida kam va optimal legirlangan YHO'O'-kupratlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib kam va optimal legirlangan yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan kupratlarning normal va o'tao'tkazuvchan holatidagi g'ayrioddiy termodinamik va boshqa tegishli xususiyatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari:** kvant va statistik mexanikaning matematik apparati, sonli usullar, fermionlarning o'rta maydon BKS-simon usuli va o'zaro ta'sirlashuvchi bozonlarning o'rta maydon usuli.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

legirlangan YHO'O'-kupratlaridagi bipolaronlar va kichik (polaron) Kuper juftliklarining Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi haroratiga tashqi bosim (kuchlanish) va bozonlararo o'zaro ta'sirning juda o'xshash va sezilarli tarzda namoyon bo'lishi ko'rsatilgan;

legirlangan YHO'O'-kupratlarining normal holatidagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlarni tasvirlaydigan miqdoriy nazariya ishlab chiqilgan;

YHO'O'-kupratlarining normal holatidagi termodinamik parametrlar (elektron issiqlik sig'imi)ning xarakterli haroratga bog'liqligi aniqlangan va ular hisoblash natijalariga asoslangan;

$\text{La}_{2-x}\text{Sr}_x\text{CuO}_4$  va  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$  asosli YHO'O'-kupratlarining  $T_c$  haroratidan yuqoridagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlarning haqiqiy tabiati va kelib chiqishi aniqlangan hamda ushbu YHO'O'-kupratlarining normal holatidagi elektron issiqlik sig'imining haroratga bog'liq eksperimental natijalari izohlangan;

ilk bor legirlangan YHO'O'-kupratlarining o'tao'tkazuvchan holatidagi g'ayrioddiy termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarni to'g'ri tasvirlaydigan miqdoriy nazariyasi ishlab chiqilgan va ulardagi kichik Kuper juftliklardan tashkil topgan o'taoquvchan (o'tao'tkazuvchi) Boze-gazining issiqlik sig'imi va entropiyasi uchun analitik ifodalar past haroratlar  $T \ll T_c$  da va  $T_c$  ga yaqin haroratlarda olingan;

legirlangan YHO'O'-kupratlarining o'tao'tkazuvchan holatidagi termodinamik parametrlarning xarakterli haroratga bog'liqligi aniqlanib,  $T_c$  dan past haroratlardagi eksperimental ravishda kuzatilgan g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlari, xususan, issiqlik sig'imining  $\lambda$ -simon g'ayrioddiyliklari izohlangan;

ilk bor Ginzburg-Landau fenomenologik nazariyasi va 3D Boze-suyuqlik o'tao'tkazuvchanlikning mikroskopik nazariyasidan foydalangan holda, II turdagi bozon (kuprat)li o'tao'tkazgichilarining termodinamik kritik magnit maydoni  $H_c(T)$  va yuqori kritik magnit maydoni  $H_{c2}(T)$  uchun yangi ifodalar olinga;

YHO'O'-kupratlarining termodinamik magnit maydoni  $H_c(T)$ , yuqori kritik magnit maydoni  $H_{c2}(T)$  va yangi o'tao'tkazuvchanlik tartib parametri  $\Delta_{sc}(T)$  ning xarakterli haroratga bog'liqligi aniqlanib, YHO'O'-kupratlarida  $H_c(T)$ ,  $H_{c2}(T)$  va  $\Delta_{sc}(T)$  yaqinida kink-simon xususiyatlar mavjud bo'lishi mumkinligi isbotlandi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

YHO'O'-kupratlarning normal holatidagi ( $T_c$  yaqinida) termodinamik xususiyatlarining g'ayrioddiy xususiyatlarini hamda ushbu materiallarning o'tao'tkazuvchan holatidagi g'ayrioddiy termodinamik va boshqa bog'liq xususiyatlarini tushuntirish uchun noodatiy Fermi-suyuqlik modeli va o'taoquvchan Boze-suyuqlik modeli doirasida yangi nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

YHO'O'-kupratlarning termodinamik va boshqa parametrlarini ifodalovchi yangi formulalar keltirilgan va  $T_c$  dan yuqori haroratda elektron fazaviy o'tish,  $T_c$  yaqinida  $\lambda$ -simon o'tao'tkazuvchan fazaviy o'tish, shuningdek,  $T_c$  dan past haroratda  $H_{c2}(T)$  va  $\Delta_{sc}(T)$  dagi kink-simon xususiyatlar izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** zamonaviy kvant mexanikasi va kondensatlangan holat nazariy fizikasi usullarini qo'llash, yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan kupuratlarining termodinamik va boshqa parametrlar uchun yangi formulalarni keltirib chiqarishda fermion va bozonlarning o'rtacha maydon usullaridan

foydalanish hamda olingan natijalar tajriba ma'lumotlari bilan mos kelishi bilan asoslanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar YHO'O'-kupuratlar va boshqa shunga o'xshash materiallarning normal va o'tao'tkazuvchan holatidagi anomal termodinamik va tegishli xususiyatlari haqidagi fizik tasavvurlarni kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar YHO'O'-kupuratlarning normal va o'tao'tkazuvchan holatidagi anomal termodinamik va boshqa tegishli xususiyatlarini o'rganishda, og'ir fermionli va organik o'tao'tkazgichilar kabi boshqa g'ayrioddiy (Boze-tipidagi) o'tao'tkazgichilarning shunga o'xshash g'ayrioddiy xususiyatlarini tadqiq qilishda muhim qo'llanma bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Legirlangan yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan kupuratlarning normal va o'tao'tkazuvchan holatlaridagi g'ayrioddiy termodinamik va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish asosida:

tashqi bosim (kuchlanish) va bozonlararo o'zaro ta'sirning bipolaronlar va kichik polaron Kuper juftlarining BEK haroratiga ta'siri, legirlangan YHO'O'-kupuratlarda o'xshash va sezilarli tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu natijalar xorijiy tadqiqotchilar (Int. Jour. of Mod. Phys. B 30, No. 26 (2016) 1650186, The European Physical Journal B 86 (2013) 312, Jour. of Low Temp. Phys. 213 (2023) 291, Physica C 604 (2023) 1354177, Jour. of Supercond. and Nov. Mag. 35 (2022) 3529) tomonidan havolalar berilgan. Ushbu ilmiy natijalar tashqi bosim va bozonlararo o'zaro ta'sirning legirlangan YHO'O'-kupuratlarda bipolaronlar va kichik polaron Kuper juftlarining BEK haroratiga ta'sirini izohlash imkonini berdi;

dissertatsiyada ishlab chiqilgan va legirlangan YHO'O'-kupuratlarning normal holatdagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlarini, shuningdek, ularning termodinamik parametrlarining xarakterli haroratga bog'liq o'zgarishini tasvirlaydigan miqdoriy nazariya xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanildi (Jour. of Phys. 592 (2015) 012075, Int. Jour. of Mod. Phys. B 29, No.24 (2015) 1550180, Phys. Lett. A 383 (2019) 1330). Ushbu ilmiy natijalar YHO'O'-materiallarning normal holatidagi elektron issiqlik sig'imini tushuntirishga yordam berdi;

YHO'O'-kupuratlar ( $\text{La}_{2-x}\text{Sr}_x\text{CuO}_4$  va  $\text{YBa}_2\text{Cu}_3\text{O}_{7-\delta}$ ) ning  $T_c$  dan yuqori haroratdagi termodinamik xususiyatlari g'ayrioddiyliklari mohiyati va kelib chiqishini aniqlash va tajriba natijalarini izohlash xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlatildi (J. Phys. Chem. Solids 161 (2022) 110451, Physica A 517 (2019) 197, Physica Scripta 94, No.5 (2019) 273, Phys. Lett. A 381 (2017) 3089). Bu natijalar nanostrukturali qatlamlar va foton kristallardan foydalanib, samarali quyosh elementlarini yaratish va qo'llash ilmiy asoslarini ishlab chiqishda yordam berdi;

ilk bor ishlab chiqilgan miqdoriy nazariya, YHO'O'-kupuratlarning o'tao'tkazuvchan holatidagi g'ayrioddiy termodinamik va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini va legirlangan YHO'O'-kupuratlarda kichik polaron Kuper juftlari o'tao'quvchan suyuqlik gazining issiqlik sig'imi va entropiyasining analitik ifodalarini  $T \ll T_c$  past haroratlarda va  $T_c$  ga yaqin haroratlarda tasvirlaydi, xorijiy tadqiqotchilar

tomonidan qo'llanildi (Handbook of Superconductivity: Fundamentals and Materials, 1 (2022) 73, Physica C 562 (2019) 56, Phys. Lett. A 452 (2022) 128447, Phys. Lett. A 383 (2019) 1330). Ushbu ilmiy natijalar bir jinsli bo'lmagan kupuratlarda zaryad tashuvilarning tabiati haqida tushuncha berdi.

legirlangan YHO'O'-kupuratlarning o'tao'tkazuvchan holatidagi termodinamik parametrlarning xarakterli haroratga bog'liq o'zgarishlari natijalari va  $T_c$  dan pastdagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlarning xatti-harakatini, ayniqsa  $T_c$  yaqinida haroratga bog'liq  $\lambda$ -simon anomaliyalarni xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanildi (Mod. Phys. Lett. B 38, No. 19 (2024) 2450147, Eurasian Phys. Tech. Jour. 21 No. 1 (2024) 47, Sci. Rep. 2019, Low Temp. Phys. 48 (2022) 72, Ann. der Physik (2019), Int. Jour. of Mod. Phys. B 32, No. 11 (2018) 1850130, Phys. Stat. Sol. b 2021, Phys. Lett. A 384 (2020) 126701). Ushbu ilmiy natijalar YBCO kupuratlarida psevdotirqishning haroratga bog'liq o'zgarish maksimumini BEK-BKS krossover harorati sifatida tanlashning ilmiy asosini berdi.

YHO'O'-kupuratlarda termodinamik kritik magnit maydon  $H_c(T)$ , yuqori kritik magnit maydon  $H_{c2}(T)$  va yangi o'tao'tkazuvchanlik tartib parametri  $\Delta_{SC}(T)$  uchun olingan ifodalar, ushbu parametrlarning xarakterli haroratga bog'liq o'zgarishlari va  $H_c(T)$ ,  $H_{c2}(T)$  va  $\Delta_{SC}(T)$  yaqinida kink-simon xususiyatlarning mavjudligi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan qo'llanildi (Phys. Lett. A 381 (2017) 2731, New J. Phys. 24 (2022) 093026, Pramana 97 (2023) 205, Mod. Phys. Lett. B 35 (2021) 2150190). Ushbu ma'lumotlar, parametrlarning haroratga bog'liq o'zgarishlarini aniqlashtirish va YHO'O'-kupuratlar uchun  $H_c(T)$ ,  $H_{c2}(T)$  va  $\Delta_{SC}(T)$  da kink-simon xususiyatlarning mavjudligini tasdiqlash imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza va muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 18 ta ilmiy ish nashr qilingan, shulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shulardan 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 166 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi belgilangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalar ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning joriy etilishi, ishning sinovi va dissertatsiya tuzilishi haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida **“Legirlangan yuqori haroratli o'tao'tkazuvchan kupuratlarning elektron tuzilmalari, termodinamik va boshqa**

**tegishli xususiyatlari bo'yicha mavjud nazariy va eksperimental natijalar**” mavzusida teshikli legirlangan kupuratlarning elektron tuzilishi va ularning psevdotirqish hamda o'tao'tkazuvchan holatlariga oid turli nazariy yondashuvlarga bag'ishlangan nazariy tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, so'nggi qirq yillikda YHO'O'-kupuratlardagi psevdotirqish va g'ayrioddiy o'tao'tkazuvchan holatlarni tushunishda muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lganiga qaramasdan, ularda yangi psevdotirqish va o'tao'tkazuvchan holatlarning qoniqarli va batafsil miqdoriy nazariyasi hali ishlab chiqilmagan. Shu asosda mazkur bobda adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish asosida ushbu dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Legirlangan kupratlarda bipolyaronlar va polyaronlar kuper juftlarining Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi”** legirlangan YHO'O'-kupratlarida katta bipolyaronlar va qutbli Kuper juftlarining ideal Boze gazi uchun Boze-Eynshteyn kondensatsiyasining (BEK) xarakterli haroratlarini aniqlash bilan bog'liq asosiy masalalar ko'rib chiqiladi. Ushbu Boze zarralarining BEK harorati o'tao'tkazuvchanlik o'tishlarining kritik haroratlaridan ( $T_c$ ) sezilarli darajada yuqori bo'lib, hatto kam legirlangan holatda ham taxminan 300 K ga yetishi ko'rsatilgan. Ideal Boze-gazga nisbatan BEK haroratini pasaytiradigan bozonlar orasidagi o'zaro ta'sirlarning ta'siri ham muhokama qilinadi. Turli yo'nalishlarda bosimning BEK haroratiga ta'sirini tushuntirish uchun kengaytirilgan Holsteyn modeli taqdim etilgan bo'lib, siqish bosimi ta'ir o'qiga qarab BEK haroratini qanday oshirishi yoki kamaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Spin  $S=0$  bo'lgan ko'p sonli  $N$  bipolyaronlar yoki qutbli Kuper juftlaridan tashkil topgan ideal Boze-gazini ko'rib chiqaylik. Energiya  $\varepsilon$  bo'lgan bunday bozonlarning soni kvant holatlari bo'yicha Boze-Eynshteyn taqsimoti funktsiyasi bilan aniqlanadi (ya'ni, impuls bo'yicha  $p$  va spin  $S$ )

$$N = \sum_p \frac{1}{\exp[(\varepsilon - \mu)/2k_B T] - 1}, \quad (1)$$

bu erda  $\mu$  – Boze-gaz zarralarining kimyoviy potentsiali,  $k_B$  - Boltsman doimiysi.

(1) ifodadagi yig'indini  $p$  bo'yicha integrallash bilan almashtirish va yangi  $y = \varepsilon/k_B T$  integral o'zgaruvchisini kiritish orqali Boze-gazi zarrachalarining umumiy soni uchun quyidagi ifodalarni olamiz:

$$\frac{N}{V} = \frac{(m_B k_B T)^{3/2}}{\sqrt{2}\pi^2 \hbar^3} \int_0^\infty \frac{y^{1/2} dy}{\exp[y - \mu/k_B T] - 1}. \quad (2)$$

Bu tenglamadan  $\mu$  qiymati topiladi. Endi (2) tenglamaga  $\mu=0$  va  $T=T_{\text{BEK}}$  qo'yib,  $T_{\text{BEK}}$  ni topish uchun tenglamani olamiz:

$$T_{\text{BEK}} = \frac{3,314 \hbar^2}{m_B k_B} \left[ \frac{N}{V} \right]^{2/3}. \quad (3)$$

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki,  $\mu=0$  da (2) ifoda endi Boze-zarrachalarining umumiy sonini emas, balki  $\varepsilon>0$  bo'lgan zarrachalar sonini aniqlaydi. Ifoda bo'yicha  $\varepsilon >0$  bo'lgan zarrachalarning umumiy soni aniqlanadi

$$N_{\varepsilon>0} = \frac{V(m_B k_B T)^{3/2}}{\sqrt{2}\pi^2 \hbar^3} \int_0^\infty \frac{y^{1/2} dy}{e^y - 1} = N \left[ \frac{T}{T_{\text{BEK}}} \right]^{3/2}, \quad (4)$$

Bu yerda  $N = N_{\varepsilon=0} + N_{\varepsilon>0}$

Keyin ifodadan  $\varepsilon=0$  bo'lgan qolgan Boze zarrachalarining soni aniqlanadi

$$N_{\varepsilon=0} = N \left[ 1 - \left( \frac{T}{T_{\text{BEK}}} \right)^{3/2} \right]. \quad (5)$$

$T \rightarrow T_{\text{BEK}}$  da  $N_{\varepsilon=0} \rightarrow 0$  va  $N_{\varepsilon>0} = N$  ga ega bo'lamiz, ya'ni xamma Boze-zarralar  $\varepsilon>0$  energetik sathda bo'ladi. Harorat  $T_{\text{BEK}}$  dan pastga tushganda, bu zarralarning aksariyati  $\varepsilon=0$  bilan eng past energiya darajasiga o'tadi.  $T=0$  da ideal Boze-gazining bipolyaronlar va qutbli Kuper juftlarining barcha zarralari shu energiya darajasida bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu hodisa Boze-Eynshteyn kondensatsiyasi (BEK) deb ataladi va (3) ifodadan aniqlangan  $T_{\text{BEK}}$  harorati YHO'O'-kupratlarida bipolyaronlar va polyaron Kuper juftlarining ideal Boze gazining BEK harorati deb ataladi.

Legirlangan kupratlardagi bipolyaronlar va polyaron Kuper juftlarining noideal Boze-gazining BEK haroratini ko'rib chiqamiz. O'zaro ta'sir qiluvchi Boze-zarralarining energiyasi [Luban M. Phys. Rev. 128 (1962) 965]

$$\varepsilon(\mathbf{k}, \mathbf{p}) = \varepsilon(0, \mathbf{p}) + \frac{\hbar^2 \mathbf{k}^2}{2m_B} + 2 \int_0^\infty d\mathbf{p} \mathbf{p}^2 [J(\mathbf{k}, \mathbf{p}) - J(0, \mathbf{p})] \frac{1}{e^{\beta\varepsilon} - 1}, \quad (6)$$

bu yerda  $\varepsilon(0, \mathbf{p}) = -\mu + \rho_B v(0) + 2 \int_0^\infty d\mathbf{p} \mathbf{p}^2 J(0, \mathbf{p}) / (e^{\beta\varepsilon} - 1)$ ,  $\mathbf{k}$  va  $\mathbf{p}$  bozon to'liqin vektorlari,  $v(0)$ ,  $\mathbf{k}=0$  va  $\mathbf{p}=0$  da bozonlararo o'zaro ta'sir potentsiali,  $J(\mathbf{k}, \mathbf{p})$   $\mathbf{k} \neq 0$  va  $\mathbf{p} \neq 0$ ,  $\beta=1/k_B T$  da bozonlararo o'zaro ta'sir potentsiali,  $J(\mathbf{k}, \mathbf{p})$  qiymat quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$J(\mathbf{k}, \mathbf{p}) = \frac{1}{8\pi^2} \int_{-1}^{+1} dr v[\mathbf{k}^2 + \mathbf{p}^2 - 2\mathbf{p}\mathbf{k}r]^{1/2}, \quad (7)$$

Boze-zarrachalarining zichligi esa quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$\rho_B = \frac{1}{2\pi^2} \int_0^\infty \frac{\mathbf{p}^2 d\mathbf{p}}{e^{\beta\varepsilon} - 1}. \quad (8)$$

Chegaraviy shartlaridan foydalanib va bir qator matematik amallar bajarib,  $\varepsilon(\mathbf{k})$  uchun quyidagi tenglamani olamiz:

$$\varepsilon(\mathbf{k}) = \varepsilon(0) + \frac{\hbar^2 \mathbf{k}^2}{2m_B^*}, \quad (9)$$

Bu erda  $m_B^*$  - o'zaro ta'sirlashuvchi bozonlarning samarali massasi va quyidagicha

$$\frac{1}{m_B^*} = \frac{1}{m_B} - \frac{1}{\pi^2} \frac{v(0)}{\hbar^2 k_c^2} \int_0^{k_s} d\mathbf{k} \mathbf{k}^2 \frac{1}{\exp[\beta(\varepsilon(0) + \hbar^2 \mathbf{k}^2 / 2m_B^*)] - 1}. \quad (10)$$

U holda, Boze-zarralarining zichligini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$\rho_B = \frac{1}{2\pi^2} \int_0^{k_s} \frac{d\mathbf{k} \mathbf{k}^2}{\exp[\beta(\varepsilon(0) + \hbar^2 \mathbf{k}^2 / 2m_B^*)] - 1}. \quad (11)$$

(10) va (11) tenglamani solishtirish natijasida quyidagini topamiz


$$m_B^* = m_B [1 - 2m_B \rho_B v(0) / \hbar^2 \mathbf{k}^2]^{-1} > m_B. \quad (12)$$

Shu bilan birga, Boze-zarrachalarining bir xil zichligidagi  $m_B^* T_{\text{BEK}}^*$  va ideal Boze gazida  $m_B T_{\text{BEK}}$  natijasiga teng bo'ladi, ya'ni  $\rho_B = \text{const}$  doimiysi bilan quyidagi munosabatni yozishimiz mumkin

$$m_B^* T_{\text{BEK}}^* = m_B T_{\text{BEK}}, \quad (13)$$

$$T_{\text{BEK}}^* = T_{\text{BEK}} [1 - 2m_B \rho_B v(0) / \hbar^2 \mathbf{k}^2] < T_{\text{BEK}}. \quad (14)$$

Kuchsiz ta'sirlashuvchi Boze gazda bipolyaronlar va polyaron Kuper juftlari uchun  $2m_B \rho_B v(0) / \hbar^2 \mathbf{k}^2 \ll 1$  shart bajarilishini taxmin qilishimiz mumkin. 1-rasmda  $T_{\text{BEK}}$  va  $T_{\text{BEK}}^*$  ning bosonlar konsentratsiyasi  $\rho_B$  ga bog'liqligi keltirilgan.



1-rasm. Ideal va noideal Boze-gazlarining BEK haroratining  $T_{\text{BEK}}$  va  $T_{\text{BEK}}^*$  bosonlarning konsentratsiyasi  $\rho_B$  ga bog'liqligi va ularning muhim farqlarini keltirilgan.

Kengaytirilgan Holsteyn modeli (KHM) doirasida qo'shilgan YHO'O'-kupratlarida bipolyaronlar ideal Boze gazining BEK haroratining tashqi bosimga (stress) ta'sirini ko'rib chiqamiz. Legirlangan kupratlardagi o'zaro ta'sir qiluvchi teshikli tashuvchilar va fononlar tizimining Gamiltonianini quyidagicha yozamiz:

$$H = H_e + H_{ph} + H_V + H_{e-ph}, \quad (15)$$

Bu yerda  $H_e = \sum_{\mathbf{n} \neq \mathbf{n}'} T(\mathbf{n} - \mathbf{n}') c_{\mathbf{n}}^{\dagger} c_{\mathbf{n}'}$  - kupratlar kristall panjarasining qo'shni tugunlari orqali teshiklarni sakrash Gamiltoniani;  $H_{ph} = \sum_{\mathbf{q}, \alpha} \hbar \omega_{\mathbf{q}\alpha} (d_{\mathbf{q}\alpha}^{\dagger} d_{\mathbf{q}\alpha} + 1/2)$  - fonon tizimining Gamiltoniani,  $H_V = \sum_{\mathbf{n} \neq \mathbf{n}'} V_c(\mathbf{n} - \mathbf{n}') c_{\mathbf{n}}^{\dagger} c_{\mathbf{n}'} c_{\mathbf{n}}^{\dagger} c_{\mathbf{n}'}$  - Kulon kuchlari orqali  $\mathbf{n}$  va  $\mathbf{n}'$  tugunlarida joylashgan o'zaro ta'sir qiluvchi teshiklarning Gamiltoniyani,  $H_{e-ph} = \sum_{\mathbf{n} m \alpha} f_{m\alpha}(\mathbf{n}) c_{\mathbf{n}}^{\dagger} c_{\mathbf{n}} \xi_{m\alpha}$  - elektron (teshik)-fonon o'zaro ta'sirining Gamiltoniani.

Oddiylik uchun bipolyaronlar ideal Boze gazini hosil qiladi deb faraz qilamiz va bipolyaronning massasi  $m_B = 2m_p$  (bu erda  $m_p$  - polyaronning massasi). Keyin tugunlararo bipolyaronlar BEK harorati sifatida aniqlaymiz

$$T_{\text{BEK}} = \frac{3,31 \hbar^2 n^{2/3}}{2k_B m^*} e^{-g^2}. \quad (16)$$

Zaryad tashuvchilarning ideal gazi uchun zarrachalar orasidagi Kulon o'zaro ta'sirini e'tiborsiz qoldirish mumkin, ya'ni  $H_V$  atamasi. Bunday holda, polyaron massasini KHM doirasida baholash mumkin.

$$\frac{m_p}{m^*} = e^{g^2}, \quad (17)$$

bu yerda  $g^2 = \frac{1}{2M\hbar\omega^3} \sum_{\mathbf{m}} [f_{\mathbf{m}}^2(\mathbf{n}) - f_{\mathbf{m}}(\mathbf{n}) f_{\mathbf{m}}(\mathbf{n} + \mathbf{a})]$  va  $m^* = \hbar^2 / 2T(\mathbf{a})a^2$  teshiklarning erkin tarmoqli massasi.


Panjara kuchlanishini (yoki deformatsiyasini) va uning (bi) polyaron massasiga va tugunlararo bipolyaronlar BEK haroratiga ta'sirini ko'rib chiqish uchun siljish zichligi kabi kuch uchun analitik ifodadan foydalanamiz.

$$f_{\mathbf{m}}(\mathbf{n}) = \frac{kc(1-\varepsilon_c)}{[|(\mathbf{n}-\mathbf{m})(1-\varepsilon_i)|^2 + (c(1-\varepsilon_c))^2]^{3/2}}, \quad (18)$$


bu erda  $k$  kuprat kristall panjarasining a-, b- va c- o'qlari bo'ylab mos ravishda panjara kuchlanishining  $\varepsilon_a$ ,  $\varepsilon_b$ , va  $\varepsilon_c$  ma'lum bir koeffitsienti. Masofa  $|\mathbf{n} - \mathbf{m}|$  panjara doimiysi  $|\mathbf{a}|=1$  yoki  $|\mathbf{b}|=1$  birliklarida o'lchanadi. Panjara kuchlanishlari quyidagicha aniqlanadi

$$\varepsilon_a = \frac{|a_{\text{недеформ}} - a_{\text{деформ}}|}{a_{\text{недеформ}}}, \varepsilon_b = \frac{|b_{\text{недеформ}} - b_{\text{деформ}}|}{b_{\text{недеформ}}}, \varepsilon_c = \frac{|c_{\text{недеформ}} - c_{\text{деформ}}|}{c_{\text{недеформ}}} \quad (19)$$

(18) tenglama tugunlararo bipolyaronlar BEK haroratini ushbu bipolyaronlar massalari orqali kuchlanishlar (shtammlar) bilan bog'lash imkonini beradi. (16) tenglama YHO'O'-kupratlarida teshikli tashuvchilarning doimiy zichligida  $T_{\text{BEK}}$  ning  $\varepsilon_a$ ,  $\varepsilon_b$ , va  $\varepsilon_c$  kuchlanishlarga bog'liqligini o'rganishga imkon beradi. Bu bog'liqlik polyaron ta'siridan kelib chiqadi.  $T_{\text{BEK}}$  qiymatlarini model panjarasi uchun  $b$ - o'qi  $\varepsilon_b$  va  $c$  - o'qi  $\varepsilon_c$  bo'ylab YHO'O'-kupratlarining panjara kuchlanishiga qarab hisoblab chiqdik.  $T_{\text{BEK}}$  ( $\varepsilon_b$ ) va  $T_{\text{BEK}}$  ( $\varepsilon_a$ ) uchun hisoblash natijalari mos ravishda 2a va 2b rasmda ko'rsatilgan.



2a-rasm. YHO'O' YBCO dagi tugunlararo bipolyaronlar BEK harorati  $b$  o'qi  $\varepsilon_b$  (qattiq chiziq) va  $c$  o'qi  $\varepsilon_c$  (chiziq chiziq) bo'ylab kuchlanish funksiyasi sifatida  $n=1 \cdot 10^{21} \text{ cm}^{-3}$  va  $k^2/(2M\hbar\omega^3)=5.885$  hisoblangan.



2b-rasm. YHO'O' YBCO dagi tugunlararo bipolyaronlar BEK harorati  $a$  o'qi  $\varepsilon_a$  (qattiq chiziq) va  $c$  o'qi  $\varepsilon_c$  (chiziq chiziq) bo'ylab kuchlanish funksiyasi sifatida  $k^2/(2M\hbar\omega^3)=9.265$  hisoblangan.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, tugunlararo bipolyaronlar va  $T_c$  YHO'O'-kupratlarining BEK harorati bir-biri bilan bog'liq va eksperimental ravishda kuzatilgan YHO'O'-kupratlarining  $T_c$  bosimiga ta'sirini sifat jihatidan tushuntiradi. Natijalarimiz va eksperimental ma'lumotlarimiz o'rtasidagi miqdoriy tafovutlar bir nechta omillarga bog'liq bo'lishi mumkin: (1) tanlangan model panjarasi oddiy; (2) bipolyaronlar o'tao'tkazuvchan bo'lmagan ideal Boze gazini hosil qiladi, lekin ular ideal bo'lmagan Boze gazini va Boze suyuqligini hosil qilishi mumkin degan taxmin; (3) KHMda elektron-fonon birikmasi holatida egilish zichligi tipidagi kuchning analitik formulasini tanlash, uning YHO'O'-kupratlariga qo'llanilishi bipolyarlarning boshqa modellari (masalan, katta bipolyaronlar) bilan solishtirganda taxminiydir).

Uchinchi bobda "**Kam va optimal legirlanlgan YHO'O'-kupratlarining psevdotirqish normal holatidagi g'ayrioddiy termodinamik xususiyatlari**" legirlash darajasiga qarab, YHO'O'-kupratlarida BKS-simon energiya bo'shlig'i (psevdotirqish) va incogrent qutbli Kuper juftlarini hosil qilish jarayonlari ko'rib chiqiladi.  $T_c$  dan yuqori bo'lgan bu xarakterli haroratlarning mavjudligini ko'rsatadigan miqdoriy faza diagrammasi taqdim etilgan va elektron issiqlik sig'imi  $C_e(T)$  ning  $T^*$  dan yuqori va past haroratlarda bog'liqliklari ham tahlil qilingan. Kiritma qo'shilgan fazasining ta'siri va zaryad taqsimotining bir hilligi ko'rib chiqiladi, bu issiqlik sig'imining anomal xususiyatlarini tushuntirishda asosiy rol o'ynaydi.

Oddiy metallarda va legirlangan YHO'O'-kupratlarida qutb tashuvchilarda elektronlarning Kuper juftlashishi mexanizmlari sezilarli darajada farq qiladi. O'zgartirilgan BKS formalizmini yirik qutblarning o'zaro ta'sir qiluvchi Fermi gaziga qo'llagan holda, bunday o'zaro ta'sir qiluvchi Fermi tizimining qo'zg'alish spektrlarida BKS-simon psevdotirqishni  $\Delta^*(T)$  aniqlash uchun o'rtacha fermion maydonining tenglamasini olamiz

$$\Delta^*(\mathbf{k}, T) = - \sum_{\mathbf{k}'} V_p(\mathbf{k}, \mathbf{k}') \frac{\Delta^*(\mathbf{k}', T)}{2E(\mathbf{k}', T)} \tanh \frac{E(\mathbf{k}', T)}{2k_B T}, \quad (20)$$

bu yerda

$$V_p(\vec{k}, \vec{k}') = \begin{cases} V_c - V_{ph} & \text{bunda } |\varepsilon(\vec{k})|, |\varepsilon(\vec{k}')| \leq \varepsilon_A = E_p + \hbar\omega_{LO} \\ V_c & \text{bunda } \varepsilon_A \leq |\varepsilon(\vec{k}')|, |\varepsilon(\vec{k}')| < \varepsilon_c, \\ 0 & \text{boshqa hollarda} \end{cases} \quad (21)$$

to'lqin vektorlari  $\mathbf{k}$  va  $\mathbf{k}'$  bo'lgan polaronlar o'rtasidagi juftlik o'zaro ta'sir potentsiali, va  $E(\mathbf{k}, T) = \sqrt{\varepsilon^2(\mathbf{k}) + \Delta^{*2}(\mathbf{k}, T)}$  o'zaro ta'sir qiluvchi Fermi tizimining bir zarracha qo'zg'alish energiyasi,  $\varepsilon(\mathbf{k})$  qutblarning fermi energiyasidan o'lchangan qutblar energiyasi

$$\varepsilon_F = \frac{\hbar^2(3\pi^2 n)^{2/3}}{2m_p} = \frac{\hbar^2(3\pi^2 n_{ax})^{2/3}}{2m_p}. \quad (22)$$

Model potentsialidan foydalanish (21) tenglamadagi  $\vec{k}$  yig'indini integral (20) ustidan o'zgartirib, BKS-simon psevdotirqishni  $\Delta^*(T)$  va Kuper polaron juftlarining hosil bo'lish haroratini  $T^*$  aniqlash uchun quyidagi tenglamani olamiz:

$$\frac{1}{\lambda^*} = \int_0^{\varepsilon_A} \frac{d\varepsilon}{\sqrt{\varepsilon^2 + \Delta^{*2}(T)}} \tanh \frac{\sqrt{\varepsilon^2 + \Delta^{*2}(T)}}{2k_B T}, \quad (23)$$

Bu erda  $\lambda^* = D_p(\varepsilon_F) \tilde{V}_p$  samarali BKS-simon ulanish konstantasi,  $D_p(\varepsilon_F) = 1/\varepsilon_F$  - bir spin orientatsiyasi uchun Fermi darajasidagi holatlarning zichligi,  $\varepsilon$  - qutbdan o'lchanadigan katta polaronlarning energiyasi Fermi energiyasi  $\varepsilon_F = \tilde{V}_p = V_{ph} - \tilde{V}_c$  qutblar o'rtasidagi juft o'zaro ta'sirning samarali potentsiali,  $V_{ph}$  - optik fononlarning almashinuvi orqali ikki qutb o'rtasidagi o'zaro ta'sirning potentsiali,  $\tilde{V}_c = V_c / [1 + D_p(\varepsilon_F) V_c \ln(\varepsilon_c / \varepsilon_A)]$  ular orasidagi ekranlangan Kulon o'zaro ta'sir potentsiali,  $V_c$  ekranlanmagan Kulon potentsiali,  $\varepsilon_A = E_p + \hbar\omega_0$  g'ayrioddiy jozibali elektron-fonon o'zaro ta'sirining kesish energiyasi,  $E_p$  - polaronning bog'lanish energiyasi,  $\varepsilon_c$  - qutblar orasidagi Kulon o'zaro ta'sirining kesish energiyasi.

$\Delta^*(T) \rightarrow 0$  da  $T \rightarrow T^*$ ,  $\Delta^*(T) \rightarrow 0$ . Unda  $\varepsilon_A \geq 7k_B T^*$  (23) dan

$$k_B T^* \approx 1.134 (E_p + \hbar\omega_0) \exp[-\frac{1}{\lambda^*}]. \quad (24)$$

(24) ifodadan, odatiy BKS ( $T_c = T^*$ ) juda kam legirlangan kupratlarda maxsus holat sifatida amalga oshiriladi, bu yerda polaron effekti  $E_p = 0$  da yo'qoladi va (24) tenglamada eksponenta oldidagi had  $\hbar\omega_0$  bilan almashtiriladi. Ushbu YHO'O'-kupratlarida legirlash darajasi va harorat oshishi bilan psevdotirqish  $\Delta^*$ , asta-sekin kamayadi.  $T \rightarrow T^*$  da bu psevdotirqish nolga intiladi va  $T = T^* > T_c$  yoki hatto  $T = T^* \gg T_c$  da yo'qoladi. Shuning uchun, BKS bo'lmagan o'ta'otkazgichlar, YHO'O'-kupratlarida, qo'shimcha aralashmalarni o'z ichiga olgan holda,  $T^*$  da ikkinchi darajali fazaga o'tish ularning termodinamik xususiyatlarida namoyon bo'lishi kerak.


Endi  $T^*$  atrofida qutbli Kuper juftlarining hosil bo'lish haroratining YHO'O'-kupratlarida teshik legirlash darajasiga bog'liqligini o'rganish uchun polaronlar holatining zichligini oddiy shaklda taxmin qilish mumkin.

$$D_p(\varepsilon_F) = \frac{1}{\varepsilon_F}. \quad (25)$$

Keyin (20) ifodani (22) ni hisobga olgan holda quyidagicha yozish mumkin:

$$k_B T^*(x) \approx 1.134 \varepsilon_A \exp\left[-\frac{\hbar^2(3\pi^2 n_a x)^{2/3}}{2m_p}\right]. \quad (26)$$

Bizning nazariy natijalarimiz YHO'O'-materiali YBCO uchun eksperimental ma'lumotlarga mos keladi (3-rasmga qarang). Kam, optimal va yuqori legirlangan YHO'O'-kupratlar aslida BKS tipidagi o'tao'tkazgichlar emas, balki bozonli o'tao'tkazgichlar bo'lib, bu materiallarida  $T^*$  (BKS-simon o'tishning boshlanishi) va  $T_c$  ( $\lambda$ -simon o'tao'tkazuvchanlikka o'tishning boshlanishi) ikki harorat o'rtasidagi farq polaron ta'siriga bog'liq.  $T^*(x)$  Polaronli va BKS-simon psevdotirqish bo'yicha yuqoridagi miqdoriy natijalar bizga LSCO va YBCO YHO'O'-kupratlarning normal holatlarining to'liq va haqiqiy faza diagrammasini yaratishga imkon beradi va bu 3-rasmga ko'rsatilgan.



3-rasm. Oddiy holatda qutblarning Kuper juftlanishining BKS-simon senariysi bo'yicha YBCO YHO'O'-materialining fazaviy diagrammasi va uning eksperimental tasdiqlanishi.  $T^*(x)$  tenglama (3.8) yordamida egri chiziq hisoblangan va BKS-simon qutbli juftlik nazariyasi parametrlari  $m_p=3m_e$ ,  $\varepsilon_A=0.18$  eB,  $\tilde{V}_p=0.058$  eB va  $n_a=1 \cdot 10^{22}$  cm<sup>-3</sup>. Ishdan tajriba nuqtalari (qora doiralar) va (oq doira, uchburchak, kvadrat) olinadi.

